

**INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O'QITISHDA INTEGRATIV
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ASOSLARI**

Mamatkarimova Barno Xabibullayevna

O'zDJTU doktoranti

Jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar yuz berar ekan, ularning ta'siri albatta shu jamiyatning ta'lim tizimida ham o'z aksini topadi. O'tgan asrning so'nggi o'n yilligi davomida, dunyoda, shu bilan birga bizning yurtimizda ta'lim tizimidagi maqsad va vazifalar qaytadan ko'rib chiqildi va ularga o'zgartirishlar kiritildi. Hozirgi kunda ta'lim tizimining oldiga qo'ygan asosiy maqsadi har bir o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga, o'zining jamiyatdagi o'rnini topishiga va o'zini o'zi yanada takomillashtirib borishiga qaratilgan yangi, har bir o'quvchi shaxsini e'tiborga oluvchi yondashuvga asoslangan ta'lim tizimini yaratishdir (Bim, 2002:11).

Globalshuv jarayoni avj olgan, axborot erkinligi va yuqori darajadagi tezligi ta'minlangan davlatimiz uchun har bir shaxsning har tomonlama yetuk, bilimli, va shu bilan birga tez muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday fuqarolar bilan dunyo hamjamiyatiga kirish va unda bemalol harakatlanish mumkin. Chet tillarini o'qitishdan maqsad ham shu yondashuvga ko'ra o'zgardi va metodikada yangi atama "kompetensiya" (mahorat, qobiliyat) tez-tez ishlatila boshladi.

Kompetensiya (lotinchadan "qobiliyat") - u yoki bu o'quv predmetini o'qitish davomida shakllanadigan bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisi, yoki egallangan bilim va ko'nikmalar asosida qandaydir faoliyat olib borish qobiliyati. Bu atama ilk bor N. Xomskiy tomonidan tilshunoslikka kiritilgan. Keyinchalik, amerikalik olim D. Hayms (1972) bu tushunchani yanada takomillashtirgan va Kommunikativ kompetensiya atamasini fanga kiritgan. Uning ta'kidlashicha, chet tilida muloqot qilish uchun nafaqat shu til birliklari va qoidalarini bilish, ba'лки "madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega holatlar" dan ham boxabar bo'lish zarur (Hymes, 1972).

Kommunikativ kompetensiyaning birliklari deganda turli muloqot jarayonlari va ijtimoiy hayot jabhalarida muloqotga kirishishda o'quvchilarga as qotadigan til birliklari tushuniladi. Yevropa ittifoqi tomonidan kommunikativ kompetensiya tushunchasi batafsil tahlil qilindi va uning tarkibiy qismlari ishlab chiqildi. Unga ko'ra, kommunikativ kompetensiya quyidagi kompetensiyalardan iborat: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar. Aynan chet tilidagi kommunikativ kompetensiya o'z navbatida ko'p qirrali va ko'p

maqsadli faoliyat mahsuli hisoblanadi. I. A. Zimnyaya tomonidan chet tili kommunikativ kompetensiyasi tarkibiy qismlari o'rganilgan.

Hozirgi kungacha grammatikaning chet tillarini o'qitishdagi o'rni va ahamiyati ko'pgina bahslarga sabab bo'lib kelgan. Umuman olganda metodika tarixida turli yondashuvlar bo'lgan, Grammatik-tarjima, audiolingual, to'g'ridan-to'g'ri (direct), muammoli (situational), tabiiy (natural), funksional yondashuv va

boshqalar. Barcha aytib o'tilgan yondashuvlarni hisobga olgan holda, shuni aytish lozimki, grammatikani o'qitish borasida faqatgina bir yondashuv barcha lingvistik: barcha til birliklari (tovushdan boshlab matngacha) nutqiy faoliyat turlari (eshitish, gapirish, o'qish, yozish) ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kompensatorlik qobiliyati (to'ldira olish) ya'ni, kerakli joyda minimum leksik yoki grammatik tuzilmalar bilan muloqotga kirisha olish o'quv-uslubiy bilimlarga ega bo'lish: umumiy o'quv ko'nikmalarga ega bo'lish tomonidan eng samarali deb tan olingan emas. Barcha yondashuvlar o'zining yaxshi va yomon tomonlariga ega va ta'lim jarayonida bir birini to'ldirib boradi. Shu sababli, til o'qituvchilari dolzarb va yangilanib borayotgan metodlardan, o'quv texnologiyalari va texnikalaridan xabardor bo'lishlari kerak, ularni o'uv jarayoniga mos kelgan paytda qo'llay olishlari zarur. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning bilim darajalari, ehtiyojlari va qiziqishlariga beriladi.

Afsuski, ba'zi hollarda o'qituvchilar yangi metodlarga emas, ba'lki vaqt davomida o'z samarasini ko'rsatgan metodlardagina foydalanib, darslarni muayyan qolipga slogan holda o'tadilar. Bu esa o'z navbatida zamonaviy ta'lim standartlariga zid bo'lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda samarali va har tomonlama qiziqarli darslarni tashkil etish uchun zamonaviy texnika vositalaridan ham foydalanish kerak. Ta'limdagi zamonaviy texnologiyalar deganda kompyuter dasturlari, telekommunikatsiya va axborot almashinuvi vositalari, masofaviy o'qish imkoniyatlari, ppt namoyishlari, internet resurslaridan o'quv jarayonida foydalanish jarayoni tushuniladi. Yuqorida keltirilgan metod va usullarning bir-biriga bog'liqligi va bir birini to'ldirib turishini aytgan edik. Oldinga qo'yilgan maqsadga erishishda hozirda metodikada nisbatan keng qo'llanayotgan yonashuv - integrativ yondashuv aynan shu vazifani bajaradi. Integrativ yondashuv haqida oldingi bobda aytib o'tgan edik. Endi esa bu yondashuvdan aynan ingliz tili grammatikasini o'qitish jarayonida foydalanish asoslariga to'xtalamiz.

Ingliz tilini o'qitish tizimida integratsiya usulini qo'llash hozirda dolzarb ahaniyat kasb etmoqda, chunki integratsiya jarayonida talabalar qaysi ilmiy yo'nalishda ta'lim olishmasin o'zlarida kommunikativ va professional kompetentliklarini takomillashtirib boradilar. Integrativ yondashuvning olib

borilishida ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj uning boshqa gumanitar va tabiiy, texnik fanlar bilan chambarchas bog'liqligi bilan ajralib turadi. Bunday integratsiya oliy ta'lim muassasalarida barcha tizimlarida ham, alohida bir fan miqyosida amalga oshirilishi mumkin (Taranosova, 2009, 317).

Ingliz tilidan kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan maxsus til sifatida foydalanish bo'yicha bajarilgan ilmiy metodologik qo'llanmalarni tahlili natijasida quyidagi xulosalarni chizib o'tih mumkin:

1. Integratsiya jarayonida tanlanadigan matnni har tomonlama, ya'ni til, nutq va kasbiy layoqatni shakllantirishga yo'naltirilganligiga qarab tanlash, ilmiy matn o'qish, tushunish va undan o'z hayotida va kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Metodik qo'llanmalarga tanlanadigan matn talabalar uchun yuqori kommunikativ ta'lim birligi sifatida qaralganligi bois, uni tanlashda o'qituvchilar har bir ilmiy yo'nalishning hususiyatlarini hisobga olishlari lozim;

2. Fanlararo aloqalarni o'rnatish. Integratsiya jarayoni bu o'zaro bog'liqlik hodisasini o'z ichiga olgni sababli, bir profilga mansub va mansub bo'lmagan fanlarni o'zaro aloqalarini topish, ular orasidagi o'xshash jihatlarni aniqlash va integratsiya uchun ajratib olish muhim ahamiyatga ega, va bu uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

a) Til va boshqa profillar zanjiridagi fanlar orasidagi shakily-mantiqiy aloqalarni aniqlash;

b) Integratsiya jarayoniga mos keluvchi komponentlarni aniqlash;

c) Integratsiyaning usullari, shartlari va miqyoisni aniqlash.

3. Integrallashgan kurslarni ishlab chiqish va ta'lim tizimiga joylashtirish. Integrallashgan ingliz tili kurslarini ishlab chiqish uchun umumiy metodologik qo'llanmalar, dasturlar va o'quv metodlarini ham tahlil qilish va tizimlashtirish kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili integrallashgan dasturlarini yaratish uchun quyidagi talim birliklarini barchasini hisobga olish lozim:

1. Integrativ faoliyat subyekti. Subyekt sifatida ta'lim muassasi talabalari chiqadi, bunda talabalar bo'lajak kasbiy faoliyatlarida qo'l keladigan chet tili o'rganish subyektlari hisoblanadi;

2. Integrativ faoliyat obyekt. Obyekt sifatida yondashuvga asoslangan o'quv dasturlari, darsliklar va materiallar yig'indisi kiradi;

3. Integratsiya jarayoni texnologiyalari, ularga ingliz tili integratsiyasi jarayonida ishlab chiqilgan, nutqiy, ta'limiy va muammoviy masalarga yechim topishga qaratilgan turli usullar kiradi;

4. Integrallashgan o'quv vositalari (usul va texnikalar yig'indisi);

5. Integrativ aloqalar jamlanmasi, ularga barcha gorizontalar va vertikal integratsiya jarayonidagi mavzular va vositalar orasidagi aloqalar.

Integratsiya jarayoni nafaqat fanlarni bir biriga bog'lashni ba'li ta'lim metodlarini ham o'zaro almashtirish va bog'lashni nazarda tutadi. Biz tomondan bu yondashuvda o'zaro bog'liqlikda o'tilishi mumkin metodlarni uch guruhga bo'lindi: 1) Anglash va izlanishga asoslangan uslublar (tahlil, madaniy o'zini o'zi anglash metodi, referat, loyiha yaratish metodi); 2) nutqiy - muammoli vaziyatlarga asoslangan uslublar (madaniyatshunoslik muammolariga qaratilgan suhbatlar olib borish, madaniy aloqalarni ko'rsatuvchi rollar o'yini metodi); 3) muammoviy - izlanuvchanlikka asoslangan uslublar (axborot texnologiyalaridan foydalanish, web-sayt, slydlar, bloglar yaratish metodlari).

Grammatikani o'qitish borasida turli olimlar o'z ilmiy ishlarida so'z yuritganlar, ammo ilmiy metodologik adabiyotlarda aynan bu til aspektini integrativ yondashuvga asoslanib o'qitish haqida kam ma'lumot bor. Yuqorida aytilganidek, grammatikani hozirgi kunda alohida o'zini o'qitish emas, ba'li uni chet tili kommunikativ kompetentligi shakllantirishning bir qismi sifatida o'qitish dozlar ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ilmiy adabiyotlarni o'rgangan holda quyidagi umumiy holatlarni ko'rib chiqamiz:

1. Kommunikativ layoqatni tarkibiy qismiga kiruvchi Grammatik bilimni shakllantirish uchun o'quvchilar va talabalarning kasbiy va akademik yo'nalishlari bo'yicha mos keladigan talablarga asoslangan mashqlar tizimini yaratish lozim;

2. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun chet tili grammatikasini o'qitish o'quv dasturlariga tanlanadigan mavzular tarkibiga boshqa fanlarda uchraydigan mavzularni qo'shish kerak;

3. Ma'lum bir guruhdagi talabalarning bilim darajalari va bilimni qabul qilish va mustahkamlash uslublari va qobiliyatlari turli hil bo'lishini hisobga olsa, o'quv jarayonida, darslarda faqatgina bir metoddan yoki yondashuvdan foydalanishning samarali emasligini bilish, shunga asoslanib, turli metodlarni tizimli ravishda to'g'ri ketma-ketlikda oquv jarayoniga jalb qilish zarur.

Shu va shu kabi talablarga javob beruvchi yondashuv deb bugungi kun metodikasida integrative yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yondashuvning asosiy tamoyili etib Ya. A. Kamenskiy tomonidan berilgan, ta'limni tabiat (uni qabul qiluvchilar) bilan uyg'unligi, muvofiqligi haqidagi g'oyasini tan olishgan. Bu tamoyilga ko'ra, o'quvchi-talabalarning yosh, individual-psixologik o'ziga xos xususiyatlari, bilimni o'zlashtira olish uslublari, ta'lim yo'nalishlaridan

qay biriga bo'lgan ehtiyojlari bilan ularga beriladigan ta'lim startegiyasi o'zro bog'liqlikda, muvofiqlkida bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Ingliz tili grammatikasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / M. G'apporov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish in-ti. - T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010 - 336 b.
2. Iriskulov A.T. Theoretical Grammar of English.-Tashkent, 2006.-64p.
3. Jacobi, M. 2010. Grammar Practice. Brattleboro, Vermont: Pro Lingua Associates;